

## **DEVELOPING TEACHER PROFESSIONAL COMPETENCE AND FORMING BASIC COMPETENCES IN BIOLOGY LESSONS**

**Jumaniyozova N.X.**

Doctoral student of Tashkent State Pedagogical University

**Annotation.** The essence of the concept of competence in this article is shown in the ways of pedagogical development of professional competence in students. The content of the set of competencies, which determines the level of development of pedagogical competencies that can be acquired for future teachers, describes the ways to form basic competencies in biology lessons.

**Key words:** professional competence, ability, young biologists, professional activity, abstract, report and presentation.

## **O`QITUVCHINING KASBIY KOMPITENTLIGINI RIVOJLANTIRISH VA BIOLOGIYA DARSALARIDA TAYANCH KOMPETENSIYALARINI SHAKILLANTIRISH**

**Jumaniyozova N.X.**

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti doktoranti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada kompetensiya tushunchasining mazmun mohiyati ta`lim oluvchilarda kasbiy kompetentlikni pedagogik jihatdan rivojlantirish yollari korsatilgan. Bo`lajak oqituvchilar uchun egallanishi mumkin bolgan pedagogik kompetentlikning rivojlanish darajasini aniqlaydigan kompetensiyalar majmuasi mazmuni biologiya darslarida tayanch kompetensiyalarini shakllantirish yollari yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** kasbiy kompetentlik, qobiliyat, yosh biologlar, kasbiy faoliyat, referat, doklad va taqdimot.

## **РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЯ И ФОРМИРОВАНИЕ КЛЮЧЕВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ НА УРОКАХ БИОЛОГИИ**

**Джуманиязова Н.Х.**

докторант Ташкентского государственного педагогического университета

**Аннотация.** Сущность понятия компетентности в данной статье раскрывается в способах педагогического развития профессиональной компетентности студентов. Описаны содержание комплекса компетенций определяющего уровень развития педагогических компетенций, которые могут быть приобретены у будущих учителей, способы формирования базовых компетенций на уроках биологии.

**Ключевые слова:** профессиональная компетентность, способности, молодые биологи, профессиональная деятельность, реферат, доклад и презентация.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 –yil 6-apreldagi “Umumiy o`rta ta`lim o`rta maxsus, kasb hunar ta`limining davlat ta`lim standartlarini tasdiqlash to`g`risida”gi 187- sonli qarori bilan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta`lim standartlari qabul qilindi.[1]

**March, 5<sup>th</sup> 2022**

Davlat ta`lim standartining maqsadi umumiy ta`lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohatlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg`or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma`naviy barkamol va intelektual shaxsni tarbiyalashdan iborat. Davlat talim standartining vazifalaridan biri davlat ta`lim standartlari talablarining ta`lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo`yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta`minlash etib belgilangan. Pedagoglik kasbi sharaflı bo`lishi bilan birgalikda juda murakkab kasbdir, chunki millatning, davlatning kuch-qudrati, ertangi umidi bo`ladigan yoshlarni aynan mana shu pedagoglar ta`lim berib tarbiyalaydilar. Pedagoglik kasbi bir paytning o`zida ham islohotchilik, ham boshqaruvchilik kasbi hisoblanadi. Shaxs kamolotini boshqarish uchun esa qobiliyat, layoqat, bir so`z bilan aytganda kompetent bo`lishi lozim. Shuning uchun o`qituvchining kasbiy kompetentligi tushunchasi uning pedagogik faoliyatini amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarligi hamda yuksak darajadagi mahoratini ifodalaydi. Kasbiy pedagogik kompetentlikka ega bo`lishda o`z ustida ishslash, O`zini –O`zi rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O`z- o`zini rivojlantirish vazifalari o`z-o`zini tahlil qilish va o`z- o`zini baholash orqali aniqlanadi. O`z ustida ishslash – pedagogning izchil ravishda o`zining kasbiy BMK va shaxsiy sifatlarini rivojlantirib borish yo`lida amaliy harakatlarni tashkil etishi.

O`z ustida ishslash quyidagilarda ko`rinadi:

- Kasbiy BMK larini shakllantirib borish;
- Faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- Kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- Ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;

Ijobiy sifatlarini o`zlashtirish.

Pedagogning o`z ustida ishlashi bir necha bosqichda kechadi.

1. Tahlil qilish asosida yutuq va kamchiliklarini aniqlash.
2. Yutuqlarini boyitish, kamchiliklarini yo`qotish haqida aniq qarorga kelish.
3. Qarorga ko`ra amaliy harakatlarni izchil tashkil etish yo`llarini izlash.
4. Xato va kamchiliklarni takrorlamaslikka intilish.
5. Qarorning izchil bajarilishini doimiy nazorat qilib borish. Kompetensiya iborasi zamonaviy adabiyotda keng qo'llaniladigan termin bo`lib, ta`lim, xodimlarni tanlash, mehnat natijasini baholash, ta`limning muvoffaqiyatligi, professional yo`naltirilganlik va shu kabi masalalarni qamrab oladi. Bugungi kunda ma`no nuqtai nazaridan oxirgacha aniqlashtirilmagan deb hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Islom hamkorlik tashkiloti anjumanida “Ta`lim va ma’rifat – tinchlik va bunyodkorlik sari yo`l” shiori ostida nutq so`zladilar. “Ta`lim va ma’rifat – tinchlik va bunyodkorlik sari yo`l” mavzusi 43-sessiya kun tartibining asosiy g’oyasi etib belgilangani chuqur ramziy ma’noga ega. Bu g’oya “Beshikdan qabrgacha ilm izla” degan mashhur hadisga hamohangdir.. Biz XXI asr globallashuv va chegaralarning barham topish davri, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internet asri jahon maydonida va dunyo bozorida tobora kuchayib, raqobat asriga aylanib borayotgan davrda yashamoqdamiz. Mustaqil O`zbekiston Respublikasida shakllanayotgan milliy g’oya Respublika Konstitutsiyasida e’tirof etilgan insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va jamiyatni barpo etish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishning yuqori bosqichlariga ko’tarish, jahon hamjamiyati safidan munosib o’rin egallahsga yo`naltirilgan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Ushbu maqsadlarning ijobiy natijaga ega bo`lishi, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o’rgatish, ularga keng dunyoqarash hamda tafakkur ko’lamini hosil qilish, ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta`lim-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga bog’liqdir. . “Kompetensiya”, “kompetentlilik” tushunchalari tilshunoslikda ilk bor XX asr o’rtalarida N.Xomskiy tomonidan qo’llangan bo`lib, tilni ishlatish jarayonida “faoliyatga yo`naltirilgan bilim, ko’nikma va malakalar majmui sifatida”, ta`lim sohasida esa “kompetensiyaviy yondashuv” sifatida talqin etilgan bo`lib, ta`limda natijaviylikni ko’rsatuvchi omillar sifatida qayd etilgan. Aytish joizki, lug’atlarda ushbu so’zlarning ma’nolari turlicha izohlanadi. Chunonchi, “O’zbek tilining izohli lug’ati”da kompetensiya so’ziga quyidagicha izohlangan: Kompetensiya – (lot. sompetere – layoqatli, munosib bo’lmoq). 1) Muayyan tashkilot yoki mansabdor shaxsning rasmiy hujjatlarda belgilangan vakolatlari doirasi;

**March, 5<sup>th</sup> 2022**

vakolat. 2) Shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi". Ruscha-o'zbekcha tarjima lug'atlarida esa bu so'z quyidagicha sharhlanadi: "Kompetensiya – 1. Biror kishi yaxshi xabardor bo'lgan soha yoki masala; 2. Vakolat, huquq ixtiyor; yetarli ma'lumotga ega bo'lgan, puxta bilimli, yaxshi biladigan, bilimdon, xabardor, omilkor; 2) asosli, e'tiborli, mo'tabar; 3) kompetensiyyaga, ya'ni huquqqa ega bo'lgan; Kompetentlik – chuqur bilimga egalik; chuqur bilimga asoslanganlik, asoslilik; xabardorlik, omilkorlik". Berilgan izohlar ta'lim sohasida kompetensiya so'zini layoqat, kompetentlikni esa layoqatlilik deb, ta'limga kompetensiyaviy yondashuvni egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish layoqatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim yo'nalishi, deb tushunish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi. Biologiya ta'limida kompetensiyaviy yondashuv ta'lim oluvchilarining o'rganayotgan mavzu materiallaridan va olingan axborotlardan o'z hayotiy faoliyatida oqilona foydalana olish, shu tilda o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda mustaqil ifodalash va nutqiy vaziyatlarga mos ravishda qo'llay olish ko'nikma-malakalarini tarkib toptirish, ya'ni tilni maqsadli ravishda amaliy qo'llay olish layoqatini shakllantirishdan iborat. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim – egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish layoqatini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim bo'lib, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarini hosil qiladi. Kompetensiyalar 2 asosiy turga: tayanch va xususiy kompetensiyalarga bo'linadi. [2] Hozirgi kunda o'quvchilar kompetensiyasini oshirish yo'lida ko'plab ishlar olib borilmoqda. Ularni o'z kasbining ustasi bo'lib yetishishlari uchun kasbiy kompetensiysi bo'lishi lozim. Kasbiy layoqat, o'z ishiga muhabbat, majburiyatni his etish yoshlar uchun juda zarur hisoblanadi. Tayanch kompetensiyalar – ta'lim mazmunining umumiyligiga tegishli; 1) umumpredmet kompetensiyalari – ma'lum doiraga kiruvchi o'quv predmetlari va ta'lim sohalariga tegishli; 2) predmetga oid kompetensiyalar – oldingi ikkitaga nisbatan xususiy hisoblanib o'quv predmeti doirasida shakllantiriladi. Tayanch kompetensiyalar har safar ta'limning ma'lum bir bosqichi va belgilangan o'quv predmeti uchun konkretlashtiriladi. Kompetensiyalarni shakllantirishni dars jarayoniga kiritish uchun ularni faoliyat shaklida berish kerak. O'quvvachilarini tayyorlashda ularning kasbiy kompetentligini shakllantirishda axborot - metodik ta'minot muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot texnologiyalaridan masofaviy ta'lim tizimi hamda o'qitish vositalaridan samarali foydalanishi ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda umum o'quvvachilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda asosiy omillardan xisoblanadi. Masofaviy ta'lim tizimi an'anaviy ta'lim tizimini amalgalashda muammolarga duch kelingan yoki shart — sharoit ushbu jarayonni taqozo qilganda qo'llaniladi. Bu jarayon ma'lum muhitda ta'lim samaradorligini oshirishga zamonaliviy texnologiyalardan etarlicha foydalanishga zamin yaratadi. Masalan 9- 10 sinf o'quvchilari quyidagi mavzuga oid tayanch kompetensiyalarini o'zlashtirishi lozim.

Asosiy genetik tushunchalarining genetik ramzlarni o'rganadi. Mendelning irsiyat qonuniyatlarini, irsiyatning xromosoma nazariyasi, jins bilan birikkan holda irsiylanish, allel va noallel genlarning o'zaro ta'siriga doir masalalar yechadi. Chatishtirishga oid sxemalar tuzatadi. Tashqi muhit omillarining organizmga ta'sirini kuzatadi. Fenotipik va genotipik o'zgaruvchanlik qonuniyatlarini o'rganadi va xulosalaydi. Odamlardagi irsiy kasalliklar, ularning kelib chiqish sabablarini o'rganadi, oldini olish tadbirlarini mantiqiy fikrlagan holda ishlab chiqadi. [3] Odam genetikasi metodlarini qo'llashga doir masalalar yechadi.

Yuqorida qayd etilgan fikrlar biologiyani o'qitishda o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni tarkib toptirishga zamin tayyorlaydi. Biologiya o'qituvchisi o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni tarkib toptirish barobarida ularda umumiyligini (predmetli) kompetensiyalarni tarkib toptirishga ham e'tibor qaratishi lozim. Mazkur jarayonda biologiyani o'qitishda o'quvchilarining ijtimoiy-gumanitar, tabiiyomatematik va amaliy o'quv fanlardan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini amalgalashiga zamin tayyorlaydigan fanlararo bog'lanishlarni amalgalashga orqali kompetensiyalarni tarkib toptirishni loyiqlik shakllantirishga lozim. Xulosa qilib aytganda, biologiya o'qituvchisi o'rganiladigan mavzuning mazmunini tahlil qilishi, ta'lim-tarbiya jarayonida fanlararo bog'lanishni amalgalashiga lozim.

**March, 5<sup>th</sup> 2022**

**Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta maxsus kasb-hunar ta'liming davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risi" dagi № 187-sonli qarori
2. www.lex.Uz
3. Shaxmurova G., Raxmatov U., Xo`janazarov O., Tog`ayeva G. —Biologiya fanini o\_qitish metodikasi moduli bo'yicha o quv-uslubiy majmua. Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi xalq ta'lim xodimlarini kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish xududiy markazi, Toshkent, 2017.
4. www.lex.uz
5. Tolipova J.O., Azimov I.T., Sultonova N.B. Biologiya darslari.(Oqituvchi kitobi) O'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. (9-sinf) —Tafakkur nashriyoti.Toshkent-2016 y.
6. www.lex.uz